



MAMLAKATIMIZGA XALQARO MOLIYA-KREDIT INSTITUTLARI RESURSLARINI JALB QILISHNING XUSUSIYATLARI

Qosimov Bobur

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ORCID: 0009-0006-8238-1098

boburkosimov0@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda xalqaro moliyaviy resurslarni jalb qilishda mavjud tizimning muammoli jihatlarini aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish hamda institutsional muvofiqlashtirishni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro moliya institutlari, energetika, transport, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalar, modernizatsiya, institutsional salohiyat.

ОСОБЕННОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ РЕСУРСОВ МЕЖДУНАРОДНЫХ ФИНАНСОВО- КРЕДИТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В НАШУ СТРАНУ

Қосимов Бобур

Институт предпринимательства и педагогики имени Денов

Аннотация. В статье разрабатываются практические рекомендации по выявлению проблемных аспектов действующей системы привлечения международных финансовых ресурсов в Узбекистане, повышению эффективности использования ресурсов, усилению прозрачности и подотчетности, улучшению институциональной координации.

Ключевые слова: международные финансовые институты, энергетика, транспорт, сельское хозяйство и социальный сектор, модернизация, институциональный потенциал.

FEATURES OF ATTRACTING RESOURCES FROM INTERNATIONAL FINANCIAL AND CREDIT INSTITUTIONS TO OUR COUNTRY

Kasimov Bobur

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. The article develops practical recommendations to identify problematic aspects of the current system for attracting international financial resources in Uzbekistan, increase the efficiency of resource use, strengthen transparency and accountability, and improve institutional coordination.

Keywords: international financial institutions, energy, transport, agriculture and social sectors, modernization, institutional capacity.

Kirish.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida investitsiya faolligini oshirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda xalqaro moliya-kredit institutlari (XMKIning) moliyaviy resurslaridan oqilona va samarali foydalanish dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar, xususan, davlat ishtirokidagi sohalarni bozor mexanizmlariga moslashtirish, xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlash va investitsiyaviy muhitni yaxshilash xalqaro moliyaviy institutlar bilan faol hamkorlikni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Islom taraqqiyot banki kabi yetakchi moliyaviy institutlar bilan hamkorligi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi.

Xususan, 2020-2024 yillar davomida infratuzilma, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ijtimoiy sohalarga qaratilgan ko'plab loyihalar xalqaro moliyaviy resurslar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Ushbu jarayonda xalqaro resurslarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish bo'yicha institutsional, tashkiliy-huquqiy va monitoring tizimlarida ayrim kamchiliklar ham kuzatilmoqda.

O'zbekistonga xalqaro moliyaviy resurslarni jalb qilishning o'ziga xos xususiyatlari, ularni taqsimlash va maqsadli yo'naltirish mexanizmlari, shuningdek, mavjud muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganildi.

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan oqilona hamkorlik qilish va ularning resurslarini milliy iqtisodiyot manfaatlariga mos ravishda jalb etish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, balki O'zbekistonning global moliyaviy tizimdagi pozitsiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro moliya-kredit institutlari (XMKIning) resurslarini jalb qilish bugungi globallashtirish va integratsiya sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Rossiyalik olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar ushbu jarayonning institutsional, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, mamlakatlar kesimida samarali tajribalarni aniqlashga xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda XMKIning moliyaviy ko'magidan foydalanish samaradorligi bevosita davlat boshqaruvi sifati, qarz yuki darajasi, institutsional rivojlanish va makroiqtisodiy barqarorlik bilan bog'liq ekanini ta'kidlanadi.

Jumladan, Zanini va Presbitero (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki kreditlarining fiskal intizom, davlat moliyasining shaffofligi va iqtisodiy o'sishga ta'siri empirik tahlil qilingan. Ular samarali boshqaruv tizimiga ega bo'lgan davlatlarda moliyaviy resurslar yuqori natijadorlik bilan ishlatilishini aniqlashgan.

Shuningdek, XMKIning rivojlanayotgan davlatlar infratuzilmasini moliyalashtirishdagi o'rni Osiyo va Afrika davlatlari misolida ham tahlil etilgan.

Kharas va Prizzon (2022) global moliyaviy institutlarning roli o'zgarib borayotgan sharoitda samarali investitsiya muhitini shakllantirishdagi omillarni tahlil qiladi. Ular, xususan, Polsha, Indoneziya va Vyetnam kabi davlatlarda donor resurslarining milliy strategiyalar bilan uyg'unligi yuqori natijalarni berganini ko'rsatadi.

Rossiyalik olimlar tadqiqotlarida esa asosan MDH davlatlarida XMKIning faoliyati, ularning kredit siyosati, institutsional muammolari va nazorat mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Krotov (2022) Rossiyada xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik tajribasini tahlil qilib, bu resurslar ko'proq energetika, ekologiya va transport sohalariga yo'naltirilganini, biroq ularni maqsadli ishlatishda muvofiqlashtirish yetarli darajada emasligini qayd etadi.

Melnikov (2023) esa xalqaro moliyaviy resurslar bo'yicha qarorlar qabul qilishda shaffoflik va loyiha monitoringining muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, qarzlarni jalb qilish jarayonida risklarni baholash va moliyaviy tahlil mexanizmlari yetarlicha ishlatilmasa, tashqi qarz yuki ortib boradi va iqtisodiy xavflar kuchayadi.

Kuznetsova (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Jahon banki bilan Rossiya va boshqa MDH davlatlarining hamkorlik tajribasi orqali institutsional muammolar byurokratiya, loyihalarning uzoq muddatli muvofiqlashtirilmasligi va axborot shaffofligining yetishmasligi asosiy to'siq sifatida ko'rsatilgan.

Yusupov (2021) o'z tadqiqotida O'zbekistonning Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikdagi loyihalarini tahlil qilib, ushbu resurslarning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini baholagan. Muallif fikricha, XMKI resurslari ko'proq infratuzilma, energetika, qishloq xo'jaligi va sog'liqni saqlash sohalariga yo'naltirilmogda, biroq ularning samaradorligini baholovchi indikatorlar tizimi to'liq shakllanmagan.

Shuningdek, Ergashev (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalarning boshqaruv mexanizmlari va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligi o'rganilgan. Muallif tashqi moliyaviy manbalarni jalb qilishda xavf tahlili va risklarni boshqarish mexanizmlarining zaifligi tufayli ayrim loyihalarda resurslar samarasiz sarflanayotganiga e'tibor qaratadi.

Jo'rayevaning (2023) ilmiy ishida esa O'zbekistonda XMKI kreditlarini jalb qilishda institutsional shart-sharoitlar, ya'ni normativ-huquqiy baza, loyiha monitoringi va hisobot berish tartiblari tahlil qilingan. Uning fikricha, xalqaro institutlar bilan samarali ishlash uchun loyiha menejmenti, ekspertiza va kadrlar salohiyatini kuchaytirish zarur.

Karimov (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekiston tashqi qarz portfelining tuzilmasi va uni boshqarish strategiyasi tahlil qilingan.

Muallif tomonidan keltirilishicha, xalqaro moliyaviy institutlar kreditlari uzoq muddatli, past foizli va kafolatlangan shaklda berilgan bo'lishiga qaramay, ularni noto'g'ri rejalashtirish iqtisodiy xavf tug'dirishi mumkin.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, xalqaro moliyaviy institutlar resurslarini jalb qilishda muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun bir qator muhim omillar: davlat siyosatining barqarorligi, kuchli loyihaviy boshqaruv, aniq va shaffof monitoring tizimi hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan strategik muvofiqlik talab etiladi. Bu boradagi xorijiy mamlakatlar tajribasi O'zbekiston uchun dolzarb amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mavjud mexanizmlarni takomillashtirishda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xalqaro moliya-kredit institutlari (XMKI) bilan samarali hamkorlik yuritish - har qanday rivojlanayotgan mamlakat uchun iqtisodiy o'sish, infratuzilma rivoji va institutsional islohotlarni amalga oshirishda muhim omil sanaladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, XMKI resurslaridan foydalanish faqat moliyaviy yordam emas, balki siyosiy va iqtisodiy strategiyalarni shakllantirish vositasidir.

Vyetnam davlatida xalqaro moliyaviy institutlar bilan aloqalarni 1993 yildan boshlab faol rivojlantirdi. Ular OTB va Jahon banki orqali uzoq muddatli kreditlar jalb qilib, qishloq infratuzilmasi va energetika tizimini yangiladi.

Muhim jihati shundaki, Vyetnam moliyaviy yordamni olishdan avval **milliy rivojlanish dasturlarini** ishlab chiqib, XMKI resurslarini aniq maqsadli loyihalarga yo'naltirgan. Bu yondashuv ular uchun samaradorlik va hisobdorlikni oshirishga yordam berdi.

2004 yildan boshlab Gruziya davlatida XMKI bilan hamkorlikni chuqurlashtirib, iqtisodiyotni liberallashtirish, soliq tizimini isloh qilish va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish yo'lida sezilarli yutuqlarga erishdi. Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mablag'lari hisobiga avtomobil yo'llari, energetika, suv ta'minoti sohalarida yirik loyihalar amalga oshirildi. Gruziya tajribasining o'ziga xos jihati **loyihalarning ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida boshqarilishidir**.

Qozog'iston davlatida xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikda neft-gaz sektorini modernizatsiya qilish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va bank tizimini isloh qilishda faol bo'ldi.

Jahon banki, OTB va YTTB orqali jalb qilingan mablag'lar ko'pincha **davlat-xususiy sheriklik (DXXS)** modeli orqali amalga oshirildi. Bu esa davlat byudjetiga yuklamani kamaytirgan holda, xususiy sektorni rivojlantirishga xizmat qildi.

Polsha Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishdan avval Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqa institutlar orqali **bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida** XMKI yordamidan foydalandi. Polsha o'zining qat'iy islohotlar dasturlari asosida moliyaviy resurslarni muvofiqlashtira oldi, ularni sanoatni raqobatbardosh qilish, energetika sektorini xususiylashtirish va eksport salohiyatini oshirishga yo'naltirdi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliya institutlari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish uchun quyidagi omillar muhim:

- moliyaviy resurslarni jalb qilishda **strategik rejalashtirish** va maqsadli yo'naltirish;
- mahalliy boshqaruv salohiyatining yuqoriligi;
- ochiqlik, monitoring va hisobdorlik tamoyillariga qat'iy rioya qilish;
- xususiy sektorni jalb qilish orqali barqaror natijadorlikka erishish.

Bu tajribalar O'zbekiston uchun ham foydali bo'lib, xalqaro institutlar bilan hamkorligining mustahkamlanishiga xizmat qilishi mumkin.

O'zbekistonning xalqaro moliya-kredit institutlari (XMKI) bilan hamkorligi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyasi va barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi yirik institutlar bilan keng ko'lamlı loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bu hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari bir necha asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda.

Birinchidan, O'zbekiston xalqaro moliya institutlari bilan munosabatlarni asosan infratuzilmani modernizatsiya qilish, energetika, transport, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga yo'naltirmoqda.

Jumladan, 2017–2025 yillar davomida XMKI mablag'lari hisobiga O'zbekistonda 150 dan ortiq yirik investitsion loyiha amalga oshirildi.

Ikkinchidan, ushbu institutlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar faqat moliyaviy resurslar jalb qilish bilangina cheklanmay, balki institutsional islohotlar, bilim va tajriba almashinuvini ham o'z ichiga oladi. Bu uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarining shakllanishida muhim rol o'ynamoqda.

Uchinchidan, xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalarda shaffoflik, samaradorlik va natijadorlik asosiy mezon sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa davlat boshqaruvi va moliyaviy nazorat tizimlarining takomillashuviga turtki bermoqda.

To'rtinchidan, O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot" ga o'tish siyosati doirasida XMKI resurslari ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilmoqda. Masalan, Osiyo taraqqiyot banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha muhim loyihalar moliyalashtirilmoqda.

Beshinchidan, xalqaro moliya-kredit institutlari bilan imzolanayotgan bitimlar, asosan, uzoq muddatli, imtiyozli shartlar asosida amalga oshirilayotgani sababli davlat qarzining xizmat ko'rsatish yuki nisbatan barqaror darajada saqlanmoqda (1-jadval).

O'zbekistonda xalqaro moliya institutlarining resurslari quyidagi asosiy tarmoqlarga yo'naltirilmoqda

№	Tarmoq	Moliyalashtirish hajmi (2020–2024, mlrd \$)	Asosiy donor institutlar
1	Energetika	2,2	OTB, YTTB, JBI
2	Qishloq xo'jaligi	1,4	JBI, ITB
3	Transport infratuzilmasi	1,8	OTB, YTTB
4	Sog'liqni saqlash va ta'lim	1,0	Jahon banki, UNICEF, YTTB
5	"Yashil energetika" va ekologiya	1,2	OTB, YTTB, GEF

Manba: O'zbekiston Respublikasi, Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi 2024 yil.

1-jadvalda O'zbekistonda xalqaro moliya institutlarining resurslari quyidagi asosiy tarmoqlarga yo'naltirilmoqda. Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida ko'rinadiki, resurslar faqat iqtisodiy tarmoqlarga emas, balki ijtimoiy sohalarini barqarorlashtirish va ekologik muammolarni hal etishga ham yo'naltirilmoqda.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoqlararo diversifikatsiyasini rag'batlantirmoqda bu esa ishlab chiqarish salohiyatining oshishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Tahlillarimiz xalqaro moliya-kredit institutlari (XMKI) ning moliyaviy resurslarini jalb qilish mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda ushbu yo'nalishda bir qator dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ular iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirishni talab qilmoqda:

- elektron hukumat tizimi doirasida xalqaro moliyaviy bitimlarni tezkor muvofiqlashtirish uchun yagona "XMKI hamkorlik platformasi" ni yaratish lozim;

- xalqaro loyihalash standartlariga muvofiq malakali kadrlarni tayyorlash, ularni XMKI ekspertizasi talablariga mos metodologiyalar bo'yicha o'qitish zarur;

- har bir jalb etilgan resursning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun "Tashqi moliyalashtirish samaradorligi indeksi" ni ishlab chiqish va uni davlat xaridlari va loyihalar portfeli orqali monitoring qilish kerak;

- har bir XMKI bilan ishlovchi muvofiqlashtiruvchi organ faoliyatini kuchaytirish, vazirliklararo aloqalarni mustahkamlovchi platformalar tashkil qilish va loyiha ijrosini yagona markaz orqali boshqarish tizimini joriy etish kerak.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro moliya-kredit institutlari (XMKI) bilan hamkorlikda keng ko'lamli infratuzilma, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish loyihalarini amalga oshirmoqda.

Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi institutlar ishtirokida davlat-investitsiya loyihalari moliyalashtirilayotgani mamlakatning global moliyaviy tizimdagi mavqei ortayotganidan dalolat beradi. Mamlakatimizda xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning hajmi va tarmoqlari kengayib borar ekan, bu resurslardan oqilona va maqsadli foydalanish ustuvor yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

Mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim snergetik loyihalarini strategik rejalashtirish, moliyaviy intizom, hisobdorlik, kadrlar salohiyatini oshirish va ekologik barqarorlik mezonlariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu xususiyatlarga e'tibor qaratish orqali O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va xalqaro moliyaviy maydonda ishonchli hamkor sifatida o'z o'rnini mustahkamlashi mumkin.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Ergashev M.T. (2022) Xalqaro moliya-kredit institutlari mablag'laridan samarali foydalanishning milliy mexanizmlari // Toshkent moliya instituti ilmiy axboroti. № 4(84). B. 56–64.

Jo'rayeva Z.I. (2023) Loyiha boshqaruvida xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning institusional shart-sharoitlari // Iqtisodiyotda innovasiyalar.. № 2(20). B. 45

Karimov A.A. (2022) Tashqi qarzning barqarorligi va uni boshqarishdagi muammolar // Moliya va bank ishi. № 5. B. 32–40.

Kharas H., Prizzon A. (2022) New Approaches to Development Finance: The Role of Multilateral Institutions // Global Policy. Vol. 13(1). P. 21–36.

Yusupov S.R. (2021) Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning institutsional asoslari va samaradorligi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. № 6. B. 110–119.

Zanini G., Presbitero A.F. (2021) IMF lending and sovereign debt sustainability // Journal of International Economics. Vol. 131. P. 103–126.

Кротов В.А. (2022) Вопросы институционального взаимодействия России с международными финансовыми организациями // Финансы и кредит. № 5. С. 42–53.

Кузнецова Т.В. (2021) Роль международных финансовых организаций в формировании инвестиционной политики в России и странах СНГ // Мировая экономика и международные отношения. № 11. С. 29–38.

Мельников А.Ю. (2023) Проблемы привлечения ресурсов международных финансовых институтов в условиях глобальной нестабильности // Вестник экономических исследований. № 2(34). С. 77–85.